



UDK: 930.905.135

Firuz NORMATOVA,
Termiz davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: firuzaxonnormatova87@gmail.com

Tarix fanlari nomzodi, dotsent J.Mirzayev taqrizi asosida

OKS VA ELAM YOZUVINING SHAKLLANISHI VA ULARNING QADIMGI SHARQ SIVILIZATSIYASIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi Oks va Elam sivilizatsiyalari piktografik yozuvi o'rtasidagi o'xshashliklar tizimli tarzda tahlil qilingan. Elam piktografik yozuvi Tepe Yahyo, Shahr-i So'xta, Shahdod kabi yodgorliklardan topilgan sopol buyumlardagi belgilar asosida o'rganilgan. Oks sivilizatsiyasi yodgorliklari – Jarqo'ton, Dashli, Kattabuloq va boshqa hududlardan topilgan belgilar Elam yozuvi bilan shakl va mazmun jihatidan o'zaro muvofiqligi bilan ajralib turadi. Maqolada piktogrammalar orqali qadimgi jamiyatlarning xo'jalik faoliyati, dehqonchilik, sug'orish tizimi, diniy tasavvurlar va astronomik bilimlariga oid belgilar taqqoslangan.

Kalit so'zlar: Oks, Elam, piktografik yozuv, Shahr-i So'xta, Kattabuloq, sivilizatsiya, xo'jalik faoliyati, astronomik bilimlar, taqqoslash.

ФОРМИРОВАНИЕ ПИСЬМЕННОСТИ ОКСА И ЭЛАМА И ИХ РОЛЬ В ДРЕВНЕВОСТОЧНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье системно проанализированы характерные сходства пиктографических письмен Окской и Эламской цивилизаций. Эламская пиктографическая письменность изучена на основе находок на глиняных изделиях из памятников Тепе-Яхья, Шахр-и Сохта, Шахдад. Памятники Окской цивилизации - Джаркутан, Дашлы, Каттабулак и другие - содержат комплексы знаков, сопоставимых с эламским письмом по форме и смысловому содержанию. В статье посредством анализа пиктограмм рассмотрены элементы, отражающие хозяйственную деятельность древних обществ, земледелие, ирригационную систему, религиозные представления и астрономические знания.

Ключевые слова: Окс, Элам, пиктографическое письмо, Шахр-и-Сохта, Каттабулак, цивилизация, хозяйственная деятельность, астрономические знания, сопоставление.

FORMATION OF THE OXUS AND ELAM SCRIPT AND THEIR ROLE IN ANCIENT EASTERN CIVILIZATION

Annotation

This article provides a systematic analysis of the characteristic similarities between the pictographic scripts of the Oxus and Elamite civilizations. The Elamite pictographic writing is studied based on artifacts found on pottery from the sites of Tepe Yahya, Shahr-i Sokhta, and Shahdad. Monuments of the Oxus civilization -including Jarkutan, Dashly, Kattabulok, and others - contain sets of signs comparable to the Elamite script in both form and semantic content. Through the examination of pictograms, the article explores elements reflecting the economic activities of ancient societies, agriculture, irrigation systems, religious beliefs, and astronomical knowledge.

Key words: Oxus, Elam, pictographic writing, Shahr-i Sokhta, Kattabuloq, civilization, economic activity, astronomical knowledge, comparison.

Kirish. Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida madaniyat, tafakkur va davlat boshqaruvining rivojlanishi bevosita yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Yozuv nafaqat axborot uzatish vositasi, balki xalqning tafakkuri, til boyligi va sivilizatsiyaviy yuksalish darajasining muhim ko'rsatkichidir. Qadimgi Sharq hududida, xususan, Markaziy Osiyodagi Oks (Amudaryo) vodiysi hamda Janubiy Erondagi Elam sivilizatsiyasi yozuv madaniyatining yirik markazlaridan biri bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi Elam va Oks sivilizatsiyalari piktografik yozuv tizimlarini o'rganish, arxeologik topilmalar asosida bu ikki madaniyat o'rtasidagi grafemik o'xshashliklarni tahlil qilish so'nggi yillarda keng qamrovli ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. D. Potts tomonidan Tepe Yahyo yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar qadimgi Elam piktografiyasining tizimli tahlilini bermogda. Pottsning ishlari qadimgi Elam yozuvi rivojida bosqichlilik mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik arxeolog olimlar, xususan, Sh.B. Shaydullayev va A.SH. Shaydullayevlar tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Kattabuloq, Jarqo'ton, Dashli, Oltintepa kabi yodgorliklarda Elam yozuv tizimiga o'xshash belgilar aniqlangan. Bu o'xshashliklar, ayniqsa, dehqonchilik, suv, oy, ko'z, kamon, narvon, yulduz va boshqa ramziy belgilar tasvirlarida namoyon bo'ladi. J. Glassner o'z tadqiqotlarida qadimgi Elam yozuv tizimini aralash xususiyatga ega - ya'ni logogrammatik va fonetik elementlar uyg'unlashgan shaklda bo'lgan - deb baholaydi. Bu qarash Elam yozuvining shakllanish bosqichida turuvchi murakkab grafemik tizim ekanligini anglatadi. Belgilar matndagi kontekstga qarab logogrammatik yoki fonetik funksiyani bajargani aniqlangan.

V.M. Masson Oltintepadan topilgan belgilarni qadimgi Elam, Xarappa va Shumer piktografiyalari bilan taqqoslab, ularning umumiylik darajasini baholashga harakat qilgan. Shuningdek, A. Asqarov tomonidan olib borilgan

tadqiqotlarda Oks sivilizatsiyasiga mansub muhrlar, sopollar va haykalchalarda uchraydigan belgilar keng o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mavzuning mohiyatini to'liqroq ochib berish maqsadida ilmiy tadqiqotning tarixiy-taqqoslov, tipologik tahlil, analiz, sintez kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oks sivilizatsiyasi piktografik xati bilan o'zaro o'xshashlikka ega bo'lgan xatlardan biri bu qadimgi Elam piktografiyasi hisoblanadi. Qadimgi Elam piktografiyasi bizga Tepai-Yahyo, Shahr-i-So'xta, Shahdod, Tall-i-Malyan va Konar-Sandal yodgorliklarida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qayd etilgan sopol namunalari va muhrlarda bitilgan belgilar orqali ma'lum.

XX asrning 60- yillari oxiri 70- yillari boshlarida italiyalik arxeologlar, keyinchalik eronlik arxeologlar tomonidan Shahr-i So'xta shahar harobasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab sopol buyumlarida piktografik belgilar borligini qayd etishdi [1]. Bunday yodgorliklar qatoriga Shahdod yodgorligini ham kiritish mumkin. Bu yerda Ali Hakimi va Kabolilar tomonidan qazishma ishlari natijasida sopol buyumlari sirtiga bronza davriga oid piktografik belgilar bitilgani aniqlandi [2].

Harvard universiteti arxeologlari tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida bronza davriga oid sopol idishlar sirtiga bitilgan piktografik belgilar aniqlangan [3]. Tadqiqotlar shuningdek, ushbu shahar harobasida hayot ma'lum bir uzilishlar bilan e. avv. V ming yillikdan to'parfiya davriga qadar davom etgani isbotlandi [4]. Tepe Yahyo yodgorligi sopollarida qayd etilgan piktografik belgilar ustida tadqiqot olib borgan D. Potts tomonidan 353 ta piktografik belgi aniqlangan. Tepe Yahyo yodgorligi piktografiyasida 20 ta asosiy belgilar guruhi va bir nechta guruh ichidagi tiplar aniqlab o'rganilgan [5].

Qadimgi Elam piktografik xatidagi belgilarni Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarida topib o'rganilgan sopol buyumlar, muhr va loy haykalchalarda ham uchratish mumkin. Bunday belgilar Marg'iyonaning Oltintepa, Tog'oloq, Gonur-depe [6] va Baqtriyaning Sopollitepa, Jarqo'ton, Dashli, Sarazm, Tillabuloq va Kattabuloq kabi yodgorliklari sopollari va muhrlarida yaxshi kuzatiladi [7]. Shu o'rinda Oltindepdan topilgan loydan ishlangan haykalchalar haqida to'xtalib o'tish lozim. V. M. Masson ushbu haykallarga tushirilgan piktografik belgilarni protoelam, shumer va Xarappa madaniyati piktografik belgilari bilan taqqoslab, xulosa berishga urinib ko'rgan edi [8].

Shuningdek, qadimgi Elam piktografik belgilariga o'xshash belgilar Dumb Sadat, Mundigak, Amri, Balakot va Kvetta kabi arxeologiya yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar davomida sopol buyumlarda aniqlangan edi [9]. Bundan kelib chiqib qadimgi Elam piktografiyasi bronza davrida qadimgi Erondan sharqda joylashgan tarixiy viloyatlar bilan yaqindan aloqada bo'lgani haqida xulosa qilish mumkin.

Qadimgi Eron hududida sakkizta shahar harobasida chiziqli xat belgilari bitilgan loy taxtachalar topib o'rganilgan bo'lib, ularga Tal-i Geser, Suza, Tal-i Malyan, Shahr-i So'xta, Tepe-Yahya, Tepe-Sialk, Tepe Sofalin va Tepe Ozbaki kabi yodgorliklarni keltirib o'tishimiz lozim [10,11]. Arxeologik qazishmalar davomida Suza shahar harobasidan 1557 ta, Tal-i Geser yodgorligidan 1 ta, Tal-i Malyan shahar harobasidan 32 ta, Shahr-i So'xtadan 1 ta, Tepe-Yahya 26 ta, Tepe-Sialk yodgorligida 19 ta, Tepe Sofalindan 130 dan ortiq va Tepe Ozbaki yodgorligida 1 ta qadimgi Elam chiziqli xatida bitilgan loy taxtachalar qayd qilingan edi.

Ushbu loy taxtachalarda bitilgan qadimgi Elam chiziqli xati o'qilishi masalasi hali to'laqonli o'z yechimini topgani yo'q. J. Glassnerning ushbu piktografik yozuv tizimi aralash xususiyatga ya'ni, ham logogramma, ham tovush xususiyatiga ega bo'lgan [12]. O'z navbatida ushbu xatdagi ba'zi belgilar matnda qo'llanilishiga qarab, o'zgacha

logogrammatik yoki fonetik xususiyat kasb etishi mumkin bo'lgan.

Gonur shahar harobasi hududida Klochkov tomonidan topilgan sopol namunasidagi belgilar ham tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinib, mahalliy xususiyatga ega bo'lgan elam-baqtriya tipiga kiruvchi piktografik yozuv namunasida sifatida e'tirof qilinmoqda. Elam-Baqtriya chiziqli xatida ba'zi belgilar burchaksimon ko'rinishga emas, ko'proq yumaloq ko'rinishga ega hisoblanadi [13].

Oks va qadimgi Elam madaniyatlari piktografik yozuvlarida umumiy holda uchraydigan belgilardan yana biri bu ekin dala maydonini ifodalovchi belgi hisoblanadi. Jarqo'ton yodgorligida qayd etilgan sopollardan faqat bittasida, Kattabuloq yodgorligida esa uchta sopol bo'lagida ekin maydonini ifodalaydigan belgi uchraydi. Ekin maydoni Jarqo'ton sopollarida to'g'ri to'rtburchak tasviri ichida ikkita gorizontal kesmani keltirilishi orqali ifodalangan [14]. Bu belgi ekin ekishga tayyor holatga keltirilgan dala maydoni ma'nosini anglatar edi.

Professor Sh. B. Shaydullayev va A. Sh. Shaydullayevlar tomonidan ochib o'rganilgan bronza davri yodgorligi Kattabuloqda dehqonchilik dalasi ifodalangan uchta holat aniqlangan [15]. Birinchisi sopol namunasida to'rtburchak shaklidagi ekin maydoni va dehqonchilik dalasi atrofida omochning tasviri tushirilgan. Bu tasvir orqali bronza davri aholisi xo'jaligining asosini tashkil etgan dehqonchilikni aks ettiruvchi hayvon vositasida omochdan foydalanib dalaga ishlav berish jarayoni tasvirlangan. Ikkinchi sopol namunasida esa dehqonchilik dalasi va ekin maydoni ustida nur sochib turgan quyosh tasvirining aks etishi ham alohida diqqatga sazovordir. Uchinchi sopol parchasida esa bevosita dehqonchilik ishi bilan bog'liq bo'lgan sun'iy sug'orishni o'zida aks ettiruvchi yirik daryodan suv oluvchi kanal (ariq) tasviri tushirilgan. Bu piktografik belgi bronza davri aholisining erishgan yutuqlaridan biri hisoblangan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ishini piktografik yozuvda ifodalanishi orqali ma'lumot keltirib o'tadi.

Dehqonchilik dalasini ifodalovchi belgi qadimgi Elam madaniyati piktografik yozuvda ham mavjud bo'lgan. Bunday belgi tepe Yahyo va shahr-i So'hta yodgorliklarida arxeologik qazishmalar davomida qayd etilgan sopol buyumlarda qayd etilgan [5].

Oks va Elam sivilizatsiyalari piktografiyadagi yana bir belgi bu suv, daryo ma'nosini ifodalovchi to'lqin belgisi hisoblanadi. Bu piktografik belgi bronza davri aholisining erishgan muhim yutuqlaridan biri hisoblangan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ishini piktografik yozuvda ifodalanishi orqali ma'lumot keltirib o'tadi. Suv, kanal yoki daryo ma'nolarini ifodalovchi to'lqin belgisi Oks sivilizatsiyasining Sopollitepa, Jarqo'ton, Dashli va Kattabuloq kabi yodgorliklarida topib o'rganilgan sopollarda qayd etilgan [17]. Suv tasvirini ifodalovchi to'lqin belgisi shuningdek, shahr-i So'hta va tepe Yahyo shaharlarida olib borilgan tadqiqot ishlari davomida sopollarida bir nechta marotaba qayd etilgan [5].

Xoch tasviri qadimgi Elam va Oks madaniyati yodgorliklari sopol namunalari ko'p uchraydigan keyingi belgi hisoblanadi. Oks sivilizatsiyasining va Dashli yodgorliklarida xoch belgisi qayd etilgan. Alohida ta'kidlab o'tish lozimki, xoch tasviri ma'lum bir muhitda yo'nalishni anglatib, kesishuvchi nuqta esa yuqori va quyi, o'ng va chap, shuningdek, ikki turli qutblarning o'zaro kesishuvini ifodalagan [18]. Bronza davri xalqlari tasavvurida xoch belgisi osmon va yer ramzini ifodalagan. O'z navbatida sopol namunalari orasida doira ichida tasvirlangan xoch belgisini ham uchratishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Oks va qadimgi Elam sivilizatsiyalari piktografik yozuvlari o'rtasidagi o'xshashliklar nafaqat alohida belgilar darajasida, balki

ularning mazmun-mohiyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatning yozuv tizimida dehqonchilik, sug'orish, astronomik kuzatuvlar va diniy ramzlarni ifodalovchi belgilar keng qo'llangan.

Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, Oks va Elam madaniyatlari o'rtasida bronza davridayoq madaniy hamkorlik yoki o'zaro ta'sir mavjud bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Piktografik yozuv tizimlaridagi umumiy elementlar qadimiy xalqlarning bilim almashuvi, xo'jalik uslublari va ramzlar tizimida o'zaro yaqinlik bo'lganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Tosi M. Development, Continuity and Cultural Changes in the Stratigraphical Sequence of Shahr-i Sokhta. In M. Tosi (ed.), Prehistoric Sistan 1. IsMEO. Roma. 1983. – P. 127-171.
2. Hakemi A. Shahdad. Archaeological Excavations of a Bronze Age Center in Iran. IsMEO-Rome. 1997.
3. Lamberg-Karlovsky C.C., Excavations at Tepe Yahya, Iran 1967-1969. Progress Report I (American School of Prehistoric Research Bulletin, 27). Cambridge. 1970.
4. Beale T. W. The Ceramics. In C.C. Lamberg- Karlovsky and T.W. Beale (eds.), Excavations at Tepe Yahya, Iran 1967-1975. American School of Prehistoric Research Bulletin 38.1986. – P. 11.
5. Potts D. T. The Potter's Marks of Tepe Yahya. Paléorient Vol. 7/1. 1981. P. 107.; Fig. 5. № 49.; Fig. 5. № 33c.; Fig. 5. № 67.; Fig. 5. № 33d.; Fig. 23. № 48.; Fig. 23. № 29-30.; Fig. 23. № 28.
6. Массон В. М., Сарианиди В. И. О знаках на среднеазиатских статуэтках эпохи бронзы// ВДИ. № 1. 1969.
7. Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент. 1973.
8. Masson V.M. Altyndepe. The University Museum, University of Pennsylvania. Philadelphia. 1988. Fig. 10.
9. Fairservis W.A. Excavations in the Quetta valley, West Pakistan, Anthropological Paper of the American Museum of Natural History 45/2. New York. 1958.
10. Scheil V. Documents archaïques en écriture proto-élamite. Mémoires de la Délégation en Perse, 6: 1905. – P. 57–128.
11. Madjidzadeh Y. Les fouilles d'Ozbaki (Iran). Campagnes 1998-2000. Paléorient 27/1. 2001. – P. 141–145.
12. Glassner J. J. Écrire à Sumer, l'invention du cunéiforme. Univers historique. Paris. 2000. – P. 213.
13. Mader M. Ein weiteres baktrisches Siegel mit elamischer Strichschrift und die Suche nach Šimaški.// Archiv für Orientforschung 54. 2021. P. 416–254.
14. Аскарлов А. А., Абдуллаев Б. Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). – Ташкент. 1983.
15. Shaydullayev Sh. B., Shaydullayev A. Sh. Kattabuloqning belgisi yozuvlari yohud Oks sivilizatsiyasi piktografiyasi. O'zbekiston arxeologiyasi. № 2 (29). Samarqand. 2023.
16. Ascalone E., Sajjadi S. Excavations and researches at Shahr-i Sokhta 2. Tehran. 2022. Fig. 26. № 60.
17. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977.
18. Бидерман Г. Энциклопедия символов. Изд. "Республика". М. 1996. – С. 132.
19. Аскарлов. А. Была ли пиктографическая письменность в культуре Сапалли// Согдийский сборник. Вып. 1. Саарбрюккен. 2013. – С. 51.
20. Чунакова О. М. Пехлевийский словарь Зороастрийских терминов, мифических персонажей и мифологических символов. Москва: "Восточная литература", 2004.
21. Сарианиди В. И. Бактрия в эпоху бронзы // СА. № 4. 1974. Рис. 1 (2).